

RESEARCH ARTICLE

A Discourse Analysis Of Women's Representation By Tonality In Uzbek Online Publications

Muslimakhon Khamidova

1st-year Master's student Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 219-221

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article presents an analysis of the tonality (positive, negative, and neutral) of materials about women in Uzbekistan's leading online media outlets. The main objective of the study is to identify how the image of women is constructed in media texts using a discursive approach and to demonstrate how gender stereotypes are shaped at the headline level. The article employs content analysis and linguistic discourse analysis methods.

KEY WORDS

Tonalitet, ayollar obrazi, gender stereotiplari, ijtimoiy rol, diskurs tahlil, internet nashrlari.

INTRODUCTION

So'nggi yillarda O'zbekiston internet nashrlarining auditoriyasi keskin oshib, onlayn media axborotning asosiy manbalaridan biriga aylandi. Raqamli jurnalistikaning rivojlanishi jamiyatda gender masalalari, xususan ayollar obrazining aks etishiga doir diskursning ham kengayishiga olib kelmoqda. Media matnlari, ayniqsa sarlavhalar, nafaqat voqelikni yoritadi, balki uni ma'lum ma'noda konstruksiya qiladi. Sarlavha mazmunning qisqa, lekin kuchli semantik markazi bo'lib, u o'quvchida voqea, shaxs yoki hodisaga nisbatan dastlabki emotsional va kognitiv munosabatni shakllantiradi. Shuning uchun ayollar haqidagi sarlavhalarda tonalitetning qanday bo'lishi axborotning qanday qabul qilinishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tonalitet lotincha tonus-ohang, litera-matn so'zlaridan olingan bo'lib, matn yoki uning bir qismi bilan uzatiladigan emotsional va baholovchi ohangdir. Uch xil tonalitet mavjud ijobiy, salbiy va neytral. "Matnning tonalitetini aniqlash murakkab vazifa bo'lib, uning yechimi asosan kontekstga, tadqiqot sohasi va mavjud matn ma'lumotlarining hajmiga bog'liq" [1]. Gender tadqiqotlarida media tilining ahamiyati alohida e'tirof etiladi. Chunki media jamiyatning mavjud tasavvurlarini takrorlaydi,

ba'zan esa yangidan shakllantiradi. Ayollar haqidagi salbiy ohangdagi sarlavhalar zo'ravonlik, iqtisodiy tengsizlik yoki ijtimoiy muammolarni markazga chiqarishi mumkin, ijobiy sarlavhalar esa ayollarning muvaffaqiyati, faol pozitsiyasi va ijtimoiy rolini yoritadi. Neytral sarlavhalar esa faktning o'zini berishga harakat qiladi, biroq ularning ham semantik strukturasida ma'lum konnotatsiyalar bo'lishi ehtimoli mavjud. Shu bois ushbu tadqiqotning dolzarbligi ayollar obrazining O'zbekiston internet nashrlarida qanday semantik va diskursiv strategiyalar orqali aks ettirilayotganini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot tanlangan nashrdagi maqolalarni tanalitet bo'yicha tasniflash, ulardagi gender stereotiplari va qiymat yuklamalarini tahlil qilishga qaratilgan.

Asosiy qism. Ushbu tadqiqotda O'zbekistonning yetakchi internet nashrlarida ayollar obrazini aks ettiruvchi maqolalarning sarlavhalari tonaliteti bo'yicha tahlil qilindi. Tahlil uchun Yuz.uz saytida e'lon qilingan ayollar haqidagi maqolalar tanlab olindi. Tanlangan maqolalar sarlavhalariga qaraganda, media matnlarida ayollar obrazining turli kontekstlarda aks etishi kuzatildi. Tadqiqot davomida

maqolalar uch asosiy kategoriyaga ajratildi: ijobiy, salbiy va neytral.

Ijobiy tonalitetga ega maqolalar kamroq bo'lsa-da, ular ayollarning ijtimoiy faoliyati va muvaffaqiyatlarini yoritishga qaratilgan edi. Masalan, "Diyora Keldiyorova "Yil voqeasi" deb topildi" [2] sarlavhasi ayolning yutuqlarini ijobiy kontekstda namoyon etadi. Sarlavhada keltirilgan "yil voqeasi" so'z birikmasi orqali Diyora Keldiyorovanning g'alabasi ushbu yildagi favqulodda yirik hodisa ekanini bildiradi. Shuningdek, "Xotin-qizlar pillachilik sohasida qisqa muddatli o'quv kurslarida o'qitiladi" [3] maqolasi ayollarning kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan faoliyatini aks ettiradi. Bu turdagi materiallar ayollarning ijtimoiy roli va shaxsiy muvaffaqiyatlarini yoritishda ijobiy hissiy ohangni shakllantiradi. Shu bilan birga, "Toshkentdan Nyu-Yorkka uchayotgan samalotda chaqaloq tug'ildi" [4] va "Biznesni va raqobatni yanada shaffof qilish uchun 20 ta muhim qonun qabul qilindi – Saida Mirziyoyeva" [5] sarlavhalari voqelikni neytral-ijobiy ohangda, faktlarga asoslanib yoritadi va hissiy yukni kamaytiradi.

Salbiy tonalitet esa ko'proq ayollarni muammoli yoki xavf ostida bo'lgan vaziyatlarda tasvirlaydi. Masalan, "Toshkent viloyatida eri tomonidan kaltaklangan ayol vafot etdi" [6] yoki

"Toshkentdagi bog'chada bolaning kaltaklanishi sabab oyog'i sindi" [7] sarlavhalari ayollarning ijtimoiy himoyasizligi va shaxsiy xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni ko'rsatadi. Bunday maqolalar hissiy jihatdan salbiy ohangga ega bo'lib, o'quvchida xavotir va qayg'u uyg'otadi. Shu bilan birga, "Andijonda kitob o'qigan onalarga 6 oylik kommunal to'lovlar to'lab beriladi" [8] maqolasi ham, garchi yordam beruvchi ijtimoiy tadbirni yoritgan bo'lsa-da, ijtimoiy sharoitdagi muammolarni aks ettirish nuqtai nazaridan salbiy yoki neytral ohangga ega hisoblanadi.

Neytral tonalitet esa voqelikni faktlarga asoslanib yoritish bilan ajralib turadi. Neytral sarlavhalar asosan rasmiy xabarlar, uchrashuvlar, ta'lim va ijtimoiy xizmatlar haqidagi materiallarda uchraydi. Bu yerda ayol shaxs emas, balki jarayonning bir qismi sifatida taqdim etiladi. Masalan, "Yaponiyalik taniqli qo'shiqchi va sozanda "O'zbek madaniyati elchisi" etib tayinlandi"[9] sarlavhalari hissiy yuklamadan xoli bo'lib, faqat axborot berishga qaratilgan. Ushbu turdagi maqolalar ijtimoiy kontekstni ko'rsatadi, lekin shaxsiy yoki hissiy bahoni shakllantirmaydi. Quyidagi jadvalda yanvar oyida Yuz.uz saytida e'lon qilingan maqolalarni tonalitet bo'yicha qanday taqsimlanganini ko'rishingiz mumkin.

Tonalitet	n	%
Ijobiy	7 ta	29%
Salbiy	8 ta	33,5%
Neytral	9 ta	37,5%
Jami:	24 ta	100%

Onlayn OAVda ayollar obrazining aksariyati muammoli va hissiy kontekstlarda yoritilgan bo'lib, salbiy va neytral ohang ustunlik qiladi. Ijobiy tonalitetdagi maqolalar kam va ular ko'proq yutuq, kasbiy rivojlanish yoki ijtimoiy e'tibor markazida bo'lgan ayollarni yoritadi. Shu bois media matnlaridagi ayollar tasvirida gender stereotiplari sezilarli darajada mavjud bo'lib, ular o'quvchilarda ayollarning ijtimoiy roli va shaxsiy muvaffaqiyatlariga nisbatan turli qadriyatlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, tahlil shuni ko'rsatadiki, ijobiy maqolalar ko'pincha professional yoki ijtimoiy yutuqlar bilan bog'liq bo'lsa, salbiy maqolalar ko'proq shaxsiy hayot, moliyaviy qiyinchilik yoki zo'ravonlik kontekstida berilgan. Bu esa media orqali ayollarning jamiyatdagi obrazini shakllantirishda ijtimoiy stereotiplarning kuchli ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa. Olingan ma'lumotlar sarlavhalarda ayollar obrazining ko'p jihatdan neytral va salbiy tonalitetda aks etishini ko'rsatdi. Salbiy ohangdagi sarlavhalar asosan zo'ravonlik, jinoyat, ijtimoiy muammolar va iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lib, ayollarni himoyaga muhtoj subyekt sifatida tasvirlaydi. Neytral sarlavhalar faktologik yondashuvga ega bo'lsa-da, ularning semantik strukturasi ham ko'pincha ayollarning maishiy yoki an'anaviy rollari bilan bog'lanadi. Sarlavhalarda hissiy so'zlar, fojeaviy metaforalar, qurbonlik semantikasi ko'p uchraydi. Ayollar haqidagi salbiy xabarlar o'quvchida kuchli emotsiya uyg'otishi sabab media uchun "reytingli" mavzu sifatida ko'rinadi. Ijobiy va neytral sarlavhalarda ayollar ko'proq mehnat, ta'lim, madaniyat, rag'bat kabi kontekstlarda uchraydi.

Ijobiy tonalitetdagi materiallar nisbatan kam bo'lib, ularda ayollar faolligi, kasbiy yutuqlari va ijtimoiy hayotdagi o'rni yoritilgan bo'lsa-da, ularning soni media muvozanatini ta'minlash uchun yetarli emas. Bu esa gender obrazining media diskursida teng aks ettirilmasligini ko'rsatadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki:

internet nashrlari sarlavhalari jamiyatdagi mavjud stereotiplarni mustahkamlashi yoki aksincha, yangi ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirishi mumkin;

ayollar haqidagi salbiy sarlavhalarning ko'pligi media diskursida gender muvozanatining yetishmasligini bildiradi;

ijobiy ayol obrazini yorituvchi materiallar sonini oshirish, media tilida neytral va xolis yondashuvni kuchaytirish zarur;

sarlavha matnining tonaliteti auditoriyaning ayollar haqidagi tasavvurlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqot media tilining gender representatsiyasini o'rganish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi hamda kelgusida boshqa internet nashrlar, mavzular yoki kengroq vaqt doirasini qamrab olish orqali yanada chuqurroq tahlillar olib borish imkoniyatini beradi.

REFERENCES

- [1] - Shakhovska K., Shakhovska H., Vesely P. The sentiment analysis model of services providers' feedback // Electronics. - 2020. - T. 9. - №. 11. - C.1922
- [2] - Диёра Келдиёрова "Йил воқеаси" деб топилди // Yuz.uz. - 2025. - URL: <https://yuz.uz/a/uz/116767>
- [3] - Фан тарихи соҳаси оғир жудоликка учради // Yuz.uz. - 2025. - URL: <https://yuz.uz/a/uz/116758>
- [4] - Япониялик таниқли қўшиқчи ва созанда "Ўзбек маданияти элчиси" этиб тайинланди // Yuz.uz. - 2025. - URL: <https://yuz.uz/a/uz/116598>
- [5] - Хотин-қизлар пиллачилик соҳасида қисқа муддатли ўқув курсларида ўқитилади // Yuz.uz. - 2025. - URL: <https://yuz.uz/a/oz/116597>
- [6] - Андижонда китоб ўқиган оналарга 6 ойлик коммунал тўловлар тўлаб берилади // Yuz.uz. - 2025. - URL: <https://yuz.uz/a/oz/116505> - (2025-12-05).
- [7] - Тошкентдан Нью-Йоркка учаётган самолётда чақалоқ туғилди // Yuz.uz. - 2025. - URL: <https://yuz.uz/a/oz/116483> . - (2025-12-05).

[8] - Бизнесни ва рақобатни янада шаффоф қилиш учун 20 та муҳим қонун қабул қилинди – Саида Мирзиёева // Yuz.uz. - 2025. - URL: <https://yuz.uz/a/oz/116349> - (2025-12-05).

[9] - Тошкентдаги боғчада боланинг калтакланиши сабаб оёғи синди // Yuz.uz. - 2025. - URL: <https://yuz.uz/a/oz/116294> - (2025-12-05).

[10] - Тошкент вилоятида эри томонидан калтакланган аёл вафот этди // Yuz.uz. - 2025. - URL: <https://yuz.uz/a/oz/116280> - (2025-12-05).